

электронное периодическое издание

ЭКОНОМИКА

и

социум

ISSN 2225-1545

№4(95)-2022



УДК 37.018.1.

*Abdullayev Q.F.
BuxDU
Pedagogika kafedrasi dotsenti
Sharipova S.X.
BuxDU
Pedagogika kafedrasi o`qituvchisi*

QADIMGI PANDNOMALARDA OILA TARBIYASI MAZMUNI

Аннотация: ushbu maqolada qadimgi ajdodlarimiz merosi, jumladan "Avesto" hamda pandnomalar mazmunida aks etgan oilaviy munosabatlar hamda oila tarbiyasining o`ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so`zlar: oila, jamiyat, huquq, majburiyat, salomatlik, tarbiya, nikoh, kamolot.

*Abdullayev Q.F.
associate professor
department of pedagogy
Bukhara State University
Sharipova S.X.
teacher
department of pedagogy
Bukhara State University*

THE CONTENT OF EDUCATION IN ANCIENT EDIFYING TEXTS

Annotation: This article describes the heritage of our ancient ancestors, including the "Avesto" and family relationships, reflected in the content of pandnoma, as well as the peculiarities of family upbringing.

Keywords: family, society, law, obligation, health, upbringing, marriage, maturity.

KIRISH. Qadim zamonlardan boshlab Turonzaminda xalq og`zaki ijodi namunalari, Qur`oni Karim va Hadislarda buyuk qomusiy olimlarning betakror, o`lmas asarlarida oila masalalari, oilaviy munosabatlar tizimi talqin va maxsus tavsif etilgan. Ana shunday ma`naviyatimizning qo`hna sarchashmalaridan biri bo`lgan, qadimgi Turon va Eronzamin xalqlarining ma`naviy qadriyati hisoblanmish-«Avesto»da ham insoniyat va uning taraqqiyoti bilan bog`liq tasavvurlar, ma`naviy-ruhiy va axloqiy mezonlar, olamni, tabiatni bilishga bo`lgan ehtiyoj va intilish, insondagi eng oliyjanob, pok fazilatlar kuylanishi bilan bir qatorda, oila asoslari, tuzilishi, tarkibi, oila ma`naviyati, ota-onalarning

oiladagi mavqelari, oilada ayol erki, burchi va huquqlari yuksak ma'naviy va axloqiy chizgilar asosida tavsiflanganligi diqqatga sazovor.

ASOSIY QISM. «Avesto»da patriarxal oila jamiyatning eng quyi bo'g'inini tashkil etishi aytilib, u o'z ichiga 4 avlod va 9 guruhni olganligi ta'kidlanadi. Oila markazida oila boshligi (kadxudo) turgan.

Xo'jalikni er va xotin boshqarib, oila davrasiga: otaona, er-xotin, farzandlar, nevaralar kirishgan. Shuningdek, oila tarkibiga: otaning aka-ukalari va opa-singillari, aka-ukalarining bolalari va nevaralari ham kirgan. Lekin ona tomon qarindoshlar va ota tomondan opa-singillarning bolalari oila tarkibiga kiritilmagan.

Chunki ular o'z xonadonlarining oila a'zolari hisoblanishgan. Istisno tariqasida ota tomon aka-ukalarning qizi oilaning to'la huquqli a'zosiga aylangan.

Zardushtiylarning oila ta'limoti asosini hayotning davomiyligi, naslning aslligini ta'minlash va, avvalo, oila qanday negizga qurilganligi masalasi tashkil etadi. Oilani tashkil etish esa dastavval nikoh bilan bog'liqdir.

«Avesto»ning Vendidod qismida oila butunligini saqlash, nikoh tuzish tartiblari, nikohning bekor qilinishi sabablari va shartlari ancha batafsil bayon qilingan: —Ikki kishi, xoh dindosh, xoh birodar, xoh do'st bir-birovi bilan nima xususda paymon bog'lasalar — biri ikkinchisining xonadonidan o'ziga xotin tanlasa, so'zsiz uning talabi qondirilishi lozim [1] yoki: «Men bu so'zlarim bilan kuyov tanlamoqchi bo'lgan bolig'a qizlarga va siz ikki tanga ham nasihat qilaman. Mening o'gitlarimga quloq solinglar va uni haqiqatda xotirangizga jo qiling va o'z dinlaringizni topinglarda, uni amalda joriy etinglar» [1].

Bunga ko'ra nikoh zurriyod qoldirish uchun irodasi mushtarak ikki tanni qovushtiradi. U yigit va qizning bir-birini chuqur hurmat qilishiga asoslangan birligidir. Qadimgi ajdodlarimizda balog'at yoshi 15 yosh hisoblanib, oila qurishga imkoniyati va qobiliyati bo'lgan har bir yigit oila qurish va o'zidan zurriyod qoldirishga majbur bo'lgan. Imkoniyati bo'la turib, uylanmay yurgan yigit badnom qilinib, temir kamar bog'lab yursa, balog'atga yetgan qiz bola umuman turmush ga chiqishni istamasa qopga solinib yigirma besh darra kaltaklanish bilan jazolangan va darmongoh huzuridagi dori tayyorlash korxonasiga ishga jalb etilgan.

«Kimning xotini 2 bo'lsa, u xotinsiz va dunyodan farzandsiz o'tayotgan kimsadan yaxshiroqdir». Lekin oila masalasida yoshlar erki paymol qilinmagan. Qiz bolani turmushga berish ota-ona izmida bo'lsa ham, nikoh oldidan uning roziligi so'ralgan. Shuningdek, «Kadxudo (er), kadbonu (xotin) mashvaratisiz, roziligisiz, qizini erga berish huquqiga ega bo'lmagan».

Bu o'rinda oila ahilligi, yaqinlar o'rtasidagi iliq munosabatlar, o'zaro hurmat, xususan, ayollarga ehtirom va ular erkini himoya qilish zarurligi yuksak axloqiy tamoyil sifatida e'zozlangan: «Qo'y, nikohga intiq bo'lgan g'ayratli qizlar, So'rasinlar zor-intizor kutgan kunlarin Xonadonin bir bahodir sohibini ham» [1]. Nikohga va oila qurishga tayyorgarlik jarayonida qiz bola tarbiyasiga alohida e'tibor berilgan. Qiz balog'atga yetguncha o'z davrining barcha

hunarlarini bilishi, chorva mollariga qarash, parvarishlash, uy-ro`zg`or yumushlarini mukammal tarzda ado etishi, pokiza, ozoda yurishi shart bo`lgan.

Bu yo`nalishda qiz bolaning ham ma`naviy, ham jismoniy sog`lom, barkamol bo`lishi, birinchidan oilaning mustahkam, xonadonning farovon bo`lishini ta`minlasa, ikkinchi tomondan sog`lom farzandlarning dunyoga kelishiga zamin yaratgan bo`ladi. Zardushtning o`z qiziga qarata «..Ey Puruchista,.. Ey Zardushtning bolig`a qizi! Mazda Ezgu niyat va Ashah haqiqatga inongan zotni senga tiriklikning yo`ldoshi aylaydi. Shunday ekan, o`z aqling va idrokingdan savol ayla,.. Hushyorligingni ziyoda qil!» deya xitob qilishi barcha qizlarga o`rnak qilib ko`rsatiladi. Professor H. Homidov «Avesto»da turmushga chiqish va uy bekasi bo`lishning 5 turi: podshoh xotin, ayuqxotin, chokar xotin, o`zboshimcha xotin, sita xotinlar ko`rsatilganligini aytib o`tib, ularning har biriga qisqacha izoh beradi.

Bu izohlarda nikoh tuzish va oila qurishdagi huquqiy holatlar, oila tuzilishi va shakllari tavsiflanganligi diqqatga sazovordir. Shuningdek, nikohni bekor qilish tartiblariga to`xtalib o`tib, arzimlas bahonalar bilan nikohni buzish, bekor qilish jamiyat tartibining susayishiga olib kelinishini alohida qayd qiladi. «Avesto» da zurriyodning pokizaligi, naslning sog`lomligi xususida qayg`urilib, bunga erishish yo`li sifatida atrof-muhitni muhofaza qilish, jamoat, oila, shaxsiy ozodalik, gigiyenaga rioya qilish, shuningdek, oila qurish jarayonida har jihatdan benuqson, sog`lom kelinlar tanlash uqtiriladi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda ta`lim va sog`liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlarning asosini —Har tomonlama yetuk, barkamol, sog`lom shaxsni tarbiyalash masalasi tashkil etar ekan, ajdodlarimizning 3 ming yil ilgari, bu a`molga yetishning yo`llari, qoidalarini ishlab chiqib, davlat va jamiyatning poydevori hisoblanmish oila negiziga qo`yganlari yuksak tahsinga sazovordir: «Menga barkamol va dinogoh vatansevar va anjumanoro, ahil, ezgu andishali, zulmatdan, tanglikdan qutqaruvchi farzandlar bag`ishla» [1]. Qadimda yaratilib, asrlar osha sayqal topgan bu o`gitlar keyingi zamonlarda yangicha ta`limot ta`sirida muayyan o`zgarishlarga uchrab, ularning mazmunan yaqin variantlari paydo bo`lganini ko`rish mumkin. Jumladan, Kaykovus —Qobusnomada: —Xotin olsang ulug` salog`lig` xonadondin xotin talab qilg`il... Xotin kamolg`a yetg`on, oqila bo`lg`on...bo`lsin desa, Buyuk Sohibqiron bobomiz Amir Temur o`z «Tuzuklarida: —O`g`illarim, nabiralarim va yaqinlarimni uylantirmoq tashvishida kelin izlamoqqa e`tibor berdim. Bu ishni davlat yumushlari bilan teng ko`rdim. Kelin bo`lmishning nasl-nasabini, yetti pushtini surishtirdim» deya ibratli mulohazalarini bayon etgan.

MUHOKAMA. Ko`rinib turibdiki, barcha zamonlarda ham ajdodlarimiz xalq va millatning sog`lom, jismonan va ma`nan barkamolligi xususida qayg`urishgan. Qadimgi ajdodlarimiz nasl sog`lomligining irsiy jihatlarini ham yaxshi bilgan ko`rinadilar. Shu maqsadda ular yaqin qarindosh-urug`lar, ya`ni aka-uka, opa-singillar farzandlarining o`zaro nikohga kirishiga aslo yo`l qo`ymaganlar. Bunday nikoh naslning, qonning buzilishiga, nuqsonli bolalarning

tug`ilishiga olib keladi degan aqidaga qat`iy amal qilganlar. «Vendidod»da bu holatlarga maxsus fargardlar bag`ishlangan. «Avesto»da qattiq qish kelib, barcha tirik jonzoatlarning qirilib ketish xavfi tug`ilganda shoh Jamshid tangri buyrug`iga ko`ra, yer ostiga shahar- varlar qurganligi va bu manzilgohlarga «Ahriman nafasi tekkanl, — deb har xil kasalliklarga chalingan, nuqsonli kishilar va jonzoatlarni kiritmaganligi tasvirlanadi: «... zinhor u yerga bukrilar, pushtsizlar, g`o`llar, duyasana (haromzoda bolalarning ota-onasi), dayvak, kasvish, vizborish (tanasi va badanida illati bor kishilar), so`yloq tishli, umuman Ahriman o`z dog`ini qoldirgan biror bir kimsani kirita ko`rma!» [1]. Shuningdek, «Avestolda oilaning mustahkamligini ta`minlaydigan asosiy qoidalardan biri bu sadoqat va o`zaro ishonch ekanligi ta`kidlanib, er-xotinning bir-biriga xiyonati qattiq la`natlangan, begona erkak bilan juftlashgan ayol badnom qilinib, jazolangan va nikohdagi eri uchun —harom» hisoblangan: «Ey jodugar xotin, yo`qol ! Ey badkor xotin-kaxovariza, yo`qol»!

XULOSA. Zardushtiylar hayotida ma`lum qoida va ahkamlarga aylangan oilaviy munosabatlar tizimi hozirgi kunda ham o`z ahamiyatini yo`qotgan emas. Xususan, oila mustahkamligiga e`tibor berish barcha zamonlar uchun muhimdir. «Avesto» ajdodlarimizning boy ma`naviy-madaniy merosi oila va turmushning turli qirralarida, yosh avlodni oila va nikohga tayyorlashda, ularni ma`naviy, axloqiy xislatlarini shakllanti-rish va takomillashtirishda qimmatli manba bo`lib xizmat qilaveradi.

Adabiyotlar:

1. «Avesto». A. Mahkam tarjiması. — T.: Sharq, 2001.
2. Абдуллаев К. Ф. Истоки начального образование у зороастрийцев //Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. – 2011. – №. 7.
3. Абдуллаев К. Ф. Истоки образование у зороастрийцев //European Social Science Journal. – 2012. – №. 10-1. – С. 337-342.
4. Бобомуродова Н. Ж. Экологическая культура как общечеловеческая ценность //ББК. – 2020. – Т. 74. – С. 188.
5. Бобомуродова Н. Ж. ЛЮБОВЬ К ЧЕЛОВЕКУ-ИДЕЙНАЯ ОСНОВА ГУМАНИЗМА АЛИШЕРА НАВОИ //Символ науки. – 2021. – №. 11-1. – С. 40-43.
6. Гулбоев А. Т. АСПЕКТЫ И ОСОБЕННОСТИ ЦЕЛОСТНОГО ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ПРОЦЕССА //Вопросы науки и образования. – 2021. – №. 10 (135). – С. 29-32.
7. Кобилжонов К. К., Фазлиддинов Ф. С., Фозилова З. Ж. Идея совершенной личности в трудах мыслителей востока //Педагогическое образование и наука. – 2020. – №. 1. – С. 100-103.
8. Ходжаев Б. К., Шарипова С.Х. Гражданская культура как важный компонент воспитания гармонично развитого поколения //ББК. – 2019. – Т. 74. – С. 248.

9. Хожиева М. Ш., Хамраев Б. Т. БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАР
МАЪНАВИЙ МАДАНИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ
//Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 8. – С. 196-202.

10. F.X. Ramazonova. Implementation directions integration into the learning
process. Ученый XXI века. – Москва 2019. № 4-(51) ISSN 2410-3586. – С. 53-
55

Оглавление

ОСНОВНОЙ РАЗДЕЛ

Abduganiev N.N., THE PLACE OF CONCRETE AND REINFORCED CONCRETE IN ARCHITECTURE.....	3
Abdullayev Q.F., Sharipova S.X., QADIMGI PANDNOMALARDA OILA TARBIYASI MAZMUNI	7
Abdurahmonova A., Gulamova M.S., MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA ESTETIK TARBIYANING O'RNI.....	12
Abdurahmonova A., Baxtiyorova D.I., INTERPRETATION OF THE PROTAGONISTS IN THE NOVELS BY J.STEINBECK AND THE THE WRITER'S STYLE	15
Agzamova N.F., AL-FARABI'S VIEWS ON HUMAN ANTHROPOLOGY	18
Ahmedova D.M., Mirzayeva U.M., APPLICATION OF MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN THE EDUCATION SYSTEM	23
Ahmedova D.M., THE EFFECT OF ENVIRONMENTAL FACTORS ON THE PRODUCTIVITY OF COTTON VARIETIES	26
Atadjanova S., FORMAL AND INFORMAL STYLE OF SPEECH IN ENGLISH	29
Belalova G., Toshpulatova M., THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE SYSTEMS IN THE PROCESS OF DIGITAL TRANSFORMATION OF THE ECONOMY	33
Bobokulov F., Kholmuminov F., Salamov A., THE USE OF EDUCATIONAL GAMES AND THEIR IMPORTANCE IN TEACHING ENGLISH TO CHILDREN	37
Davletova D.N., Iskandarova R.R., THE ROLE OF EQUIVALENCE IN THE TRANSLATION OF COLLOCATIONS	41
Ergashev M.M., FROM INDUSTRIAL WASTE IN ROAD CONSTRUCTION USE.....	45
Erkinovna N., BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING KREATIV QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRUVCHI MASHQ NAMUNALARI (MATEMATIKA FANI MISOLIDA).....	49
Erkinova N., BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QITUVCHISINING METODIK MATEMATIK TAYYORGARLIGI VAZIFALARINING PEDAGOGIK ASOSLARI.....	52
Faxriddinov A.Z., Sultonov X.G., EFFECTIVENESS OF ATTRACTING INVESTMENTS IN IMPROVING THE ECOLOGICAL CONDITION OF IRRIGATED LANDS	56

Выпуск № 4(95) 2022
Сайт: <http://www.iupr.ru>
Издательство: ООО "Институт управления и социально-
экономического развития", Россия, г. Саратов
Дата издания: Апрель 2022